

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

"MENEJMENT VA MARKETING" KAFEDRASI

ISHNIYOZOV FARRUH QARSHIBAYEVICHNING

**ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**5340200 – "Menejment" yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish
uchun yozilgan**

Ilmiy rahbar: Rahmatullayeva N.

Toshkent-2012

MUNDARIJA

KIRISH.....	3-12
I BOB. ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	13-43
1.1. Ishlab chiqarish korxonalarida sifat tizimini tashkil etish.....	13-21
1.2. Mahsulot sifatini boshqarish jarayonlari va ularni tuzilish xususiyatlari.....	22-30
1.3. Sifatni boshqarishning majmuaviy tizimlari va mahsulot sifatining aniqlash usullari.....	31-43
II BOB. "MITAN PAXTA ZAVODI" OAJDA MAHSULOT SIFATINI TASHKIL ETISH MEZONLARI VA KORXONA MOLIYAVIY TAHLILI.....	44-74
2.1. "Mitan paxta zavodi" OAJ korxonasida sifatni boshqarish strategik usullari.....	44-52
2.2. "Mitan paxta zavodi" OAJ korxonasining iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish.....	53-74
III BOB. ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	75-109
3.1. Sifatni boshqarish tizimini takomillashtirishda standartlashtirishning ahamiyati.....	75-84
3.2. Mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimini takomillashtirish	85-93
3.3. AQSH va Yaponiya firmalarida sifatni boshqarish tizimini tajribasidan foydalanish.....	94-109
Xulosa va takliflar.....	110-115
Foydalanilgan adabiyotlar.....	116-118
Ilovalar.....	119

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi jahon iqtisodiy jarayonlarida qo'llaniladigan ishlab chiqarish, xo'jalik va tijorat usullariga katta qiziqish uyg'otdi. Ular orasida marketing tamoyillari va usullari alohida o'rinni egallaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitini mavjudligi sifat va uni boshqarish muammolariga katta ahamiyat berishga majbur qiladi. Rivojlangan davlatlarda raqobat, kurash sifatini oshirish dasturlarini ishlab chiqarishga sabab bo'ladi. Mahsulot va xizmatlar sifatini baholash uchun ob'ektiv ko'rsatkichlarni ishlab chiqish zaruriyati tug'iladi. Sifat va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud. Sifatni oshirish harajatlarni kamaytirib, bozor ulushi hamda ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga ko'maklashadi. Yuqoridagilar bo'lajak menejerlardan sifatni boshqarish sohasiga oid chuqur ilmiy va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishni talab qiladi.

Dunyoni rivojlangan davlatlarida sifat bilan ta'minlash iste'molchini talabini sifatli mahsulotlar va xizmatlar bilan qoniqtirish, ishlab chiqarishni zamonaviy usullar bilan boshqarish masalalariga chuqur e'tibor bermoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tish jahon iqtisodiy jarayonlarida qo'llaniladigan ishlab chiqarish, xo'jalik va tijorat usullariga katta qiziqish uyg'otdi.

Tadbirkorlik jamiyat rivoji va iqtisodiyot uchun juda muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz I.A.Karimov "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari"¹ deb oldini olish deb ta'kidlagan edilar. Shuning uchun ham iqtisodiyotimizni rivojlanishi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish davlat tomonidan qo'llab- quvvatlanmoqda. Ayniqsa tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo'lgan, shuningdek davlat qo'llab- quvvatlanmoqda va himoyasiga muhtoj bo'lgan tadbirkorlik-kichik biznes va xususiy tadbirkorlik hisoblanadi.

Kichikbiznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish hozirgi paytda eng muhim masalalardan biriga aylangan. Kichik tadbirkorlik hozirgi bozor munosabatlari jarayonini tobora chuqurlashib borayotgan bir davrda respublikamizning iqtisodiy

¹Manba : I.A.Karimov "Jahon iqtisodiy moliyaviy inqirozi O'zbekiston sharoitida unni bartaraf etish yo'llari va choralari" – T. O'zbekiston 2009-yil. 54-bet

taraqqiyotiga sezilarli darajada xissa qo'shmoqda. Shu tufayli, kichik va o'rta tadbirkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish shu kunning davlat vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda, chunki kichik tadbirkorlik qanchalik rivojlansa ularning soni ko'payib, ishlab chiqarish va sifat oshib borsa mamlakatimizning iqtisodiy qudrati tobora oshadi, xalq faravonligi oshadi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi prezidenti I.A.Karimovning 2001-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasida "O'zbekiston jadal o'sishga erishdi va global moliyaviy-inqirozga qarshi samarali choralar ko'rdi. Keyingi besh yilda O'zbekistonda o'sish sur'atlari o'rtacha 8,5%ni tashkil etdi. Bu Markaziy Osiyodagi ko'rsatkichdan yuqoridir.

O'tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki maxsulotning o'sish sur'ati, kutilganidek amalda 8,3%ni tashkil etdi. 2000-2011-yillarda mobaynida YaIM hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha O'zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlar qatoridan joy oldi. O'tgan yili sanoat ishlab chiqarish 6,3% qishloq xo'jaligi mahsulot yetishtirish 6,6% chakana savdo aylanmasi 16,4% va aholiga pullik xizmat ko'rsatish 16,1% ga barqaror yuqori su'ratlar bilan o'sdi.

2012-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra mamlakatimizning tashqi qarzi YaIMning 17,5% eksport hajmiga nisbatan esa 53,7%dan oshmaydi. Bu xalqaro mezonlar bo'yicha "har jihatda maqbul holat" deb hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tgan yili 6 mln. 800 ming tonna g'alla, 3 mln. 500 ming tonnaga yaqin paxta, 8 mln. 200 ming tonnadan ortiq sabzavot va poliz qariyb 3 mln. Tonna bog'dorchilik mahsulotlari yetishtirildi. Shu bilan birga 6 mln. 600 mingtonna sut 1 mln. 500 ming tonnadan ortiq go'sht, 3 mlrd. 500 mln. Donadan ziyod tuxum yetishtirildi.

Ishlab chiqarish hajmi kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarni yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora tadbirlar dasturiga muvofiq 2012-2016-yillarda hisob-kitoblar bo'yicha qiymati 6 mln. 200 mln. \$ bo'lgan 270dan ziyod investitsiya loyihasida shuningdek, ishlab chiqarish modernizatsiya

qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko'zda tutilmoqda.

O'tgan yili 3800 dan ortiq fermer xo'jaligi paxta yetishtirish bo'yicha shartnoma majburiyatini bajara olmadi. Natijada 120 mlrd.dan ortiq yoki 160 ming tonnadan ziyod paxta homashyosi kam yetishtirildi. Agar bu ko'rsatkichni eksport qilish mumkin bo'lganda paxta tolasi aylantirilgan bo'lsak, bu foyda hajmi boy berilgan paxtani qayta ishlashdan olinadigan moy, shirot, kunjara boshqa mahsulotlarni hisobga olmaganda ham, yo'qotish qariyb 100 mln.\$ni tashkil etadi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatni boshqarish tizimlarini joriy etish, mahsulotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash masalasi barcha korxonalarda ham hal etilgan deb bo'lmaydi. Bu kamchilik, ayniqsa, biz uchun o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lgan yengil sanoat, farmasevtika va qurilish materiallari, sanoat tovarlari ishlab chiqariladigan tarmoqlarga tegishlidir.

2012-yilning 26-yanvar kuni O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiya kengashining 4-majlisi bo'lib o'tdi, majlis kun tartibi O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining 2011-yildagi faoliyati yakunlari va 2012-yilda mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar belgilab olish masalalariga bag'ishlanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar sifatini oshirish masalasi ham federatsiya kengashining doimiy diqqat markazida bo'ldi. Shu maqsadda korxonalar, tashkilot va muassasalarda "Ma'naviyat soatlari" o'tkazilishi joriy qilib, ularda respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov rahbarligida mamlakatimizda istiqloq yillarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar erishilayotgan yutuqlar, davlatimiz insonparvar siyosatining mazmun-mohiyati va ahamiyati mehnatkashlar ayniqsa, yoshlar ongiga yetkazib kelinmoqda.²

Bitiruv malakaviy ishi dolzarbligi mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi jahon iqtisodiy jarayonlarida qo'llaniladigan ishlab chiqarish, xo'jalik va tijorat usullariga katta qiziqish uyg'otdi. Ular orasida marketing tamoyillari va usullari alohida o'rin egallaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitini

² Manba O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "2011-yilning asosiy yutuqlari va 2012-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi" "O'zbekiston" xalq so'zi 2012-y.

mavjudligi sifat va uni boshqarish muammolariga kata ahamiyat berishga majbur qiladi. Rivojlangan davlatlarda raqobat kurash sifatini oshirish dasturlarini ishlab chiqarishga sabab bo'ladi. Mahsulot va xizmatlar sifatini baholash uchun obyektiv ko'rsatkichlarni ishlab chiqish zarurdir. Ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish va ishlab chiqarish samaradorligi o'rtasida to'g'ri bog'lanish mavjud. Sifatni oshirish xarajatlarni kamaytirib, bozor ulushi ishlab chiqarish samaradorligiga erishishga ko'maklashadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimida zamonaviy menejmentini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-amaliy kalitini o'rganish, korxonalarining xo'jalik dastakini takomillashtirish shuning negizida bozorni zarur, yuqori sifatli xalq iste'mol mollari bilan boyitish jahon bozoriga chiqishga keng yo'l ochish va o'z mahsulotlarini xorijiy davlatlarda raqobatga bardosh beradigan qilib tayyorlash va uni valyutaga sotish va bu bilan respublika iqtisodini yuksaltirishdir.

Bitiruv malakaviy ishining vazifasi sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish, sifatni yaxshilash hisoblanadi. Ishlab chiqarish korxonasida mehnat unumdorligini keskin oshira oladigan mahsulot tannarxini kamaytirib sifatini yaxshilay oladigan prinsipial yangi texnika va texnologik jarayonlarni joriy etishga kata e'tibor qilish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining o'rganganlik darajasi sifatni boshqarish nazariyasini ishlab chiqishga atoqli olimlar P.A.Chebishev, M.Lyanunov, I.G.Venskiy, A.M.Dlin, U.A.Shuxort, E.Dmin, A.Feychenbusmlar "ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish" bo'yicha katta hissa qo'shganlar.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti va predmeti. Tadqiqot obyekti sifatida respublikamizning "metan paxta zavodi" OAJning samarali boshqarish amaliyoti tanlangan. Tadqiqot predmeti bo'lib, korxonaning sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha turli choralarni izlab topish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirishda sifatli mahsulotlarni ko'paytirish ularni sifat

darajasini oshirish yo'llari va turli bozorlarda o'z o'rnini va xaridorlarini izlab topish hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi .

Mavzu: Ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish.

Kirish

I bob.I BOB. ISHLAB CHIQRISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

- 1.4. Ishlab chiqarish korxonalarida sifat tizimini tashkil etish
- 1.5. Mahsulot sifatini boshqarish jarayonlari va ularni tuzilish xususiyatlari
- 1.6. Sifatni boshqarishning majmuaviy tizimlari va mahsulot sifatining aniqlash usullari

II BOB. "MITAN PAXTA ZAVODI" OAJDA MAHSULOT SIFATINI TASHKIL ETISH MEZONLARI VA KORXONA MOLIYAVIY TAHLILI

2.1. "Mitan paxta zavodi" OAJ korxonasida sifatni boshqarish strategik usullari

2.2. "Mitan paxta zavodi" OAJ korxonasining iqtisodiy salohiyatini baholash va tahlil qilish

III BOB. ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA SIFATNI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Sifatni boshqarish tizimini takomillashtirishda standartlashtirishning ahamiyati

3.2. Mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimini takomillashtirish

3.3. AQSH va Yaponiya firmalarida sifatni boshqarish tizimini tajribasidan foydalanish

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar

Ilovalar

1-bob ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarishning asosiy yo'nalishlari

1.1. Ishlab chiqarish korxonalarida sifat tizimini tashkil etish

Sifatni boshqarish o'zida boshqaruvning me'yoriy usullarini aks ettiruvchi standartlarga asoslanadi.

Xalqaro standartida ISO 9001 berib o'tilgan ta'rifga ko'ra sifat tizimi- bu sifatning umumiy boshqaruvini ta'minlovchi tashkiliy tarkib, javobgarlik, jarayonlar, protsedura va resurslar taqsimotining majmuidir.

Mahsulotlar yetkazib berish bo'yicha kontrakt tuzish uchun xorijlik xaridor ishlab chiqaruvchida sifat tizimining mavjudligini va bu sifat tizimiga taulluqli sertifikatlash organi tomonidan berilgan sertifikatni ko'rsatishni talab qiladi.

Sifat tizimi korxonada oldiga qo'ygan maqsad va belgilangan siyosatni olib borishni ta'minlovchi omil sifatida tashkil qilinadi va amalga joriy etiladi.

Korxonada sifat bo'yicha siyosati korxonaning yuqori rahbariyati tomonidan ishlab chiqiladi.

Sifat tizimining asosiy vazifalari bo'lib: sifatni ta'minlash, sifatni boshqarish, sifatni yaxshilash hisoblanadi. U korxonada rahbariyati tomonidan sifatni ta'minlash bo'yicha siyosatini amalga oshirishning vositasi sifatida tashkil qilinadi.

Sifat tizimida buyurtmachi(xaridor) mol yetkazib beruvchi (tayyorlovchi) faoliyat olib boradi.

Sifat tizimida korxonada siyosati va maqsadini ta'minlash uchun sifat tizimida:

1. Marketing, bozorni o'rganish;
2. Texnika talablarini loyihalashtirish va ishlab chiqarish;
3. Material-texnik ta'minot;
4. Texnik jarayonlarni tayyorlash va ishlab chiqish;
5. Ishlab chiqarish;
6. Nazorat, sinov va tadqiqotlar o'tkazish;
7. O'rash va saqlash
8. Sotish va taqsimot;
9. Montaj va ishga tushurish;
10. Xizmat ko'rsatishga texnik yordam;
11. Foydalanib bo'linganidan keyin utilizatsiya qilish.

Korxonada mahsulot sifatini nazorat qiluvchi sifat xizmati bo'limini tashkil qilish korxonada olib borilayotgan sifat bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtirishga imkon beradi. Sifat xizmati sifat bo'yicha uslubiy takliflarni ishlab chiqadi. Bu xizmat turi faqatgina bosh direktorga bo'ysunadi. Sifat xizmati funksional tizimining namunaviy ko'rinishi bo'ladi.

Korxonada rahabariyati bu xizmat orqali nafaqat mahsulot sifatining xalqaro standartlariga javob berishini nazorat qilib boradi. Balki mahsulot sifatini doimiy ravishda takomillashtirib imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Maxsus xizmat turi orqali iste'molchilar ehtiyojini va ularning mahsulot sifatiga qo'yadigan talabini o'rganadi.

- Mahsulot sifatining aniq standartlariga javob bermasligi bevosita ishlab chiqarishning o'zidayoq aniqlanishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun sifatni nazorat qilish quyidagi barcha texnologik zanjir bo'yicha amalga oshirilishi kerak:
- Material va butlovchi qismlarning kirish nazorati laboratoriyalar orqali amalga oshirilishi;

- Korxonada ishlab chiqarish jarayonining texnologik jihozlari faol nazorat qilish uslublarini ishlab chiqish, shuningdek operatsiyalar bo'yicha tanlama yoki to'liq nazorat olib borilishi va tyor mahsulotning yakuniy nazorat;
- Korxonada laboratoriyalari mahsulotning davriy sinovlariga oid maxsus ko'rgazmalari bilan ta'minlanishi kerak.

Sifat funksiyalarini tizimlash har bir mahsulot sifati funksional va rag'batlantiruvchi funksiyalarni o'zida aks ettirishi kerak. Bu holatda gap iste'molchi belgilaydigan sifat haqida ketmoqda. Bunda iste'molchi bildirgan sifatning ko'plab ko'rib chiqishi talab etiladi. Bu esa mahsulot sifati bo'yicha shug'ullanuvchilarning oldida ko'plab muammolarni yuzga keltiradi.

Bu muammolarni hal etish uchun sifat funksiyasini tizimlash (SFT) uslubi qo'llaniladi. Ishlab chiqishni ta'minlash kerak.

Sifat funksiyalarini tizimlash

1-chizma

SFT 1960-yillarning oxirlarida Yaponiyada ishlab chiqilgan bo'lib, uni birinchi bo'lib "Mitsubisi" firmasi qo'llay boshlagan. Undan so'ng bu uslub Ford korporatsiyasida keng quloch yoydi.

SFT modeli doktor Yauququra tomonidan ishlab chiqilgan. SFT 4 ta davrdan tashkil topadi:

- ❖ Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirish;
- ❖ Loyihani tizimlash;
- ❖ Texnologik jarayonlarni rejalashtirish;
- ❖ Ishlab chiqarishni rejalashtirish

1-davr. Mahsulot ishlab chiqarishni rejalashtirishda xaridorlarning talablari aniqlanadi, o'zlashtiriladi va muhandislik loyihalashtirish tiliga o'tkaziladi. Ulardan eng muhimlari kelgusi davrlarda

2-davr. Loyihani tizimlash davrida mahsulot ishlab chiqarishning ko'plab tamoyillari ko'rib chiqiladi va tizimlash talabi javob bergan tamoyillardan eng yaxshisi tanlab olinadi.

3-davr. Texnologik jarayonlarni rejalashtirishda mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayoni ko'rib chiqiladi.

4-davr. Ishlab chiqarishni rejalashtirish bu – yakuniy davrda jarayonlarni boshqarishning uslublari ko'rib chiqiladi. Bu uslublar iste'molchilar talabini qondira oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishni ta'minlashi kerak.

³ 1-chizma: Sifat funksiyalarini tizimlash:

Manba: D.Sobirjonova, SH.To'laganova, 'Sifat menejmenti'. O'quv qo'llanma. Toshkent, TMI, 2009-yil

Korxonalar rahbarlari mahsulot sifatining standartdan chetga chiqishini emas balki uni oldindan belgilash va bartaraf etishga alohida e'tibor qaratishi kerak.

Standart- mahsulot sifatiga qo'yiladigan asosiy talablarni o'zida aks ettiruvchi texnik-me'yoriy hujjatdir.

Sifatni boshqarishda texnik shartlar qisman rol o'ynaydi.

Texnik shartlar bu davlat standartlariga qo'shimcha tarzda belgilanadigan agar ular mavjud bo'lmagan taqdirda mahsulot sifati ko'rsatkichlariga mustaqil talab qo'yoladigan texnik-me'yoriy hujjatdir.

Standartlar mahsulotlarning barcha hayotiylik bosqichlarida uning sifatini oshirishni rejalashtirish tartibi va uslublarini belgilaydi, sifati nazorat qilish va baholash uslublari va vositalariga talabni belgilaydi.

Mahsulot sifatini boshqarish davlat, xalqaro, tarmoq va korxonalar standartlari asosida amalga oshiriladi.

Mahsulot sifati va standartlash bo'yicha xalqaro standartlar Xalqaro standart tashkiloti (XST) yoki ISO (ingliz tilida international standart organization) XST tashkiloti tashkiloti 1946-yilda BMT qoshidagi standartlarni muvofiqlashtirish bo'yicha qo'mita yig'ilishida dunyo miqyosida standartlarni muvofiqlashtirish bo'yicha qo'mita xalqaro tovarlar almashinish va o'zaro yordamini yengillashtirish; intellectual, ilmiy, texnik, iqtisodiy faoliyat muhitida hamkorlik qilishni kengaytirish maqsadida tashkil qilindi.

ISO ning faoliyat turi xalqaro standartlarni ishlabchiqish chiqish hisoblanadi. ISO standartlari ishlab chiqish qo'llash uchu juda qulay hisoblanadi. Milliy standartlashtirishda ulardan foydalanish sotish bozorini, eksportni kengaytirish, ishlabchiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishni qo'llab quvvatlash imkonini beradi.

Xalqaro elektrotexnik komissiya (XEK) 1906-yili Londonda tashkil topgan. 1946-yilda ISO tashkil topganidan keyin XEK o'zining molyaviy va tashkiliy masalalari bo'yicha mustaqilligini saqlab qolganni holda bu tashkilotga birlashtiriladi. XEK

elektrotexnika, elektronika, radioaloqa va priborsozlik yo'nalishida standartlashtirish bilan shug'ullanadi.

Xalqaro standart tashkilotining maqsadi elektrotexnika, radioelektronika bilan talablarni sohalarida standartlashtirish masalalarini hal qilishda xalqaro hamkorlik qilishdan iboratdir. Uning asosiy vazifasi ushbu soha bo'yicha xalqaro standartlarni ishlab chiqish hisoblanadi.

Standartlash bo'yicha xalqaro tashkilot bo'yicha mahsulotlariga qo'yiladigan talablarni belgilaydi va ISO standartlarida 9000 seriyasini vujudga keltirdi. Sifat tizimini sertifikatlashga tayyorlash⁴:

1. Aniq belgilangan protseduraning mavjudligi;
2. Voz kechish va qaytish sonining kamligi;
3. Tekshiruv laboratoriyasining mavjudligi;
4. Yuqori darajadagi unumdorlik;
5. Korxonada sifat bo'yicha menejerlarning mavjudligi;
6. Jarayonlarni nazorat qilishning statistic uslublarini qo'llash;
7. Hujjat bilan rasmiylashtirilgan protseduralarning mavjud bo'lishi;
8. Korxonada tashkiliy jihatdan shakllantirilgan sifat tizimining mavjud bo'lishi;
9. Korxonada sifat bo'yicha bo'limning mavjud bo'lishi;
10. Mahsulot ishlab chiqarishni nazorat qilish;
11. Nuqsonlarni aniqlash bo'yicha ishlarni olib borilishi.

Iste'molchilar uchun ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatining yuqori darajadagi barqarorligi va muqarrarligining kafolati bo'lib, sertifikatga ega bo'lgan sifat tizimi hisoblanadi.

Sifat tizimida sertifikatning mavjud bo'lishi bozorda raqobatni saqlashning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi. U o'zida:

1. Ishlab chiqarish boshqarish bilan bog'liq muammolarning mavjud emasligi;
2. Korxonada ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga buyurtmachilar tomonidan bildirilayotgan shikoyatlar sonining ko'p emasligi;

⁴ Manba: Qosimov.S 'Innavatsion menejment' ma'ruza matnlari: Toshkent 2010-yil.

3. Xaridorlar mol yetkazib beruvchining mavjud sifatni boshqarish tizimidan qoniqish hosil qilishi;
4. Xaridorlar mavjud sifatni boshqarish tizimi to'g'risidagi hujjatlarni talab qilish;
5. Xaridor mol yetkazib beruvchida sifatni boshqarish tizimining mavjudligini shaxsan o'zi tekshirishi va baholay olishi.

1.2. Mahsulot sifatini boshqarish jarayonlari va ularni tuzilish xususiyatlari.

Avvalo mahsulot sifatini boshqarish jarayonlarini va ularni tuzilish xususiyatlarini o'ragishdan oldin sifat tushunchasiga to'xtalamiz.

Sifat tushunchasi ko'p qirrali ko'p ma'noli falsafiy tushunchadir. Ameriakning ko'pchilik kompaniyalari "Go'zallik kuzatib turuvchining ko'z oldida namoyon bo'ladi", ya'ni har bir inson sifatga o'z nuqtai nazaridan qaraydi degan xulosaga kelishgan. Demak, "sifatni boshqarish mukammallikka erishilidi degani emasi, u bozor talabiga javob beruvchi sifatga ega bo'lgan mahsulotni samarali ishlab chiqishdir". DJuran sifatni "foydalanishga yaraydi deb belgilaydi". Flipp Trospi sifatni "sifatni talablarga to'g'ri kelishi deb ta'kidlagan".

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 19-iyunda qabul qilingan "Respublika korxonlarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risidagi" qarori ijrosi ta'minlash hisobidan erishildi.

Iqtisodiyotni ko'lamida esa bu tushunchaga "noziklarning nozigi" deb ataladi.

Bu fikr va mulohazalar umumishlab jamlanganda "Sifat – bu qo'shilgan va kutilgan talablarni mahsulotning yig'ilgan tavsiflari orqali qoniqtirish" degan xulosa kelib chiqadi.

Iste'molchining kutilayotgan talablarini qoniqtirish, bozorda o'z mavqeiga ega bo'lish uchun ishlab chiqaruvchidan quyidagilarni talab qiladi:

1. Yangi mahsulotlarni;
2. Yangi texnologiyalarni;
3. Yangi boshqaruv usullarini;
4. Yangi unsurlarni tadbiq etilishi;

Bu narsalarni tadbiq etish esa ishlab chiqaruvchi kompaniya va firmalar orasida raqobatni yuzaga keltiradi, bu esa o'z navbatida taraqqiyotning asosiy omili hisoblanadi.

Sifat tushunchasini anglab yetish va uni ishlab chiqarishda ta'minlab berish har bir tashabbuskor uchun dolzarb vazifadir.

Bozor iqtisodiyoti rivojlanayotgan davlatlarda ko'rinib turibdiki, asosiy vosita sifat orqali:

- Hamma ko'rinishdagi resurslar harajatini muvofiqlashtirish;
- Ishlab chiqarishdagi sarf-harajatlarni kamaytirish, ishlab chiqarishni oshirish;
- Mahsulotga qo'yilgan barcha talablarni bajarish;
- Iste'molchining kutayotgan talabini ro'yobga chiqarish;
 - Iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchining orasidagi aloqa va munosabatlarini ta'minlash;
 - Ishlab chiqarish boshqaruvini va xizmat ko'rsatish jarayonlarini doimo murakkablashtirish;
 - Nafaqat ishlab chiqaruvchini, iste'molchining kam talabini to'liq qondirish imkoniyatini beradi.

Mahsulot sifati quyidagilar bilan ta'riflanadi:

- Xizmatga yaroqliligi;
- Ishonchliligi (xavsizligi, uzoq muddatga foydalanishliligi, saqlashligi, ta'mirlashga yaroqliligi);
- Foydalanish tavsifi;
- Tashqi estetik ko'rinishi;
- Ishlatishdagi qulayligi;
- Sotuv oldi va keyingi xizmat ko'rsatish va boshqalar.

Mahsulot sifati ko'p sonli va har xil texnik iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik xususiyatlar omiliga bog'liq. Shartli ravishda bu omillar 3 guruhga bo'linadi.

1. Material-texnik (ishlab chiqarish asbob uskunlari, dastgohlar ishlab chiqarishni texnik va metrolog taminoti, sinov va nazoratning uslub va vozitalari, ishlatiladigan materiallar, bin ova qurilmalar);
2. Inson omili (malakasi professional bilimi, o'z ishiga bo'lgan qiziqishi);

3. Ma'muriy (tashkilotning umumiy ishlab chiqarish faoliyatini va qismi sifat boshqaruvini tashkil etish).

Umuman olganda, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yuqori darajada ushlab turish ta'minlash kompleks muammodir. Faqat ilmiy asoslangan holda tizim va kompleksli bir vaqtda va o'zaro bog'liq bo'lgan texnik , tashkiliy, iqtisodiy, huquqiy va ijtimoiy tadbirlar yordamida tez va aniq holatda mahsulot sifatini mukammallashtirish mumkin. Sifatni boshqarish nazariyasini ishlab chiqishga atoqli olimlar P.L.Chebliyev , M.Lyapunov, I.T.Venskiy, A.M.Dlin, U.A.Shukart, E.Demin, A.Feygenbuanlar katta xissa qo'shganlar.

Sifatni boshqarish zamonaviy nazariyasi shundan kelib chiqadiki, sifatni boshqarish bo'yicha faoliyat mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin samarali bo'lishi mumkin emas. Bu faoliyat mahsulot ishlab chiqarish jarayonida amalga oshirilishi lozim.

Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagilardan iborat:

- Sifatni boshqarish dasturini ishlab chiqarish va uni amalga oshirishni rejalashtirish;
- Mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi har qanday boshqarilayotgan jarayon holati haqida axborot olish va uni tahlil qilish;
- Sifatni boshqarishga oid qarorlar qabul qilish ob'ektga qilinadigan boshqaruvchi ta'sirlarni tayyorlash;
- Boshqaruvchi ta'sirlarni chiqarish;
- Boshqaruvchi ta'sirlar yuzaga keltirgan mahsulot sifati ko'rsatkichlarining o'zgarishlari haqida informatsiya olish va uni tahlil qilish;


Mahsulotning haqiqiy sifati to'g'risidagi ma'lumot rejalashtirilgan sifat ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Qiyoslash natijalari bo'yicha sifatni saqlab turish yoki ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar bo'yicha ishlab chiqariladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi turli omillar o'zgartirilishini nazarda tutadi. Bu omillarni texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiylarga ajratish mumkin.

Texnikaviy omillar texnologik jihozlar, uskunalar, asbob va nazorat vositalar holati, dastlabki materiallar, xom-ashyo va jamlovchi buyumlar sifati, texnikaviy hujjatlar va boshqalar holati va sifatidan iborat.

Sifatni boshqarishning tamoyil shakli⁵

2-chizma



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 19-iyunda qabul qilingan "Respublika korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq bo'lgan sifatni boshqarish tizimini joriy etishni kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi" qarori ijrosini ta'minlash hisobidan erishilmoqda.

Haq to'lash shakli, ish haqining miqdori, yuqori sifatli mahsulot va ish uchun mukofatlash, yaroqsiz mahsulot uchun ish haqidan chegirib qolish, mahsulot narxi va tannarxi, sifat darajasi va boshqalar.

Ijtimoiy omillar guruhi: kadrlarni tanlash, joylash va ish joyini o'zgartirish, malaka oshirishni tashkil etish, ilmiy-texnikaviy ijod, ratsinollashtirish va ixtirochilik, turar-joy maishiy sharoitlar, jamoadagi o'zaro munosabatlar, psixologik muhit va boshqalar.

Mahsulot sifatini boshqarish mezonlari.

⁵ Manba: D.Sobirjonova, SH.To'laganova, 'Sifat menejmenti'. O'quv qo'llanma. Toshkent, TMI, 2009-yil

Sifatni boshqarish masalasidan kelib chiqib, zaruriy xususiyatlarni boshqarish mezonlaridek qabul qilish mumkin. Misol uchun, materiallar sarflanishini kamaytirish kerak bo'lsa, mezon sifatida mashinaning massasi qabul qilinadi.

Ishonchlilikni oshirish kerak bo'lsa, mezon sifatida mashinani to'xtab qolmasligi va boshqalar qabul qilinadi.

Aytib o'tilgan mezonlar texnikaviy mezonlar soniga kiradi va ulardan keng foydalaniladi, lekin ular xususiy mezonlardir. Ularda sifatga erishish uchun sarflanadigan harajatlarni baholash nazarda tutilmagan. Bilarsiz mahsulot sifatini boshqarish tizimi ishi samaraliligini baholab bo'lmaydi. Shuning uchun, sifatni boshqarishda mahsulot sifati texnikaviy va iqtisodiy xususiyatlarni jamlaydigan mezonlardan foydalanish kerak. Bu holda mahsulotni integral sifati tushunchasi qo'llaniladi. Mahsulotning integral sifati deb mahsulotdan foydalanish yoki uni iste'mol qilishning yig'indisi goydali samarasining mahsulotni yaratish foydalanishga sarflanadigan yig'indisi harajatlariga bo'lgan nisbati tushuniladi.

Korxonalar bozorda talablarni o'rgangan holda iste'molchilar ehtiyojlarini qondirib foydalanishda zaruriy samarani ta'minlaydigan mahsulotlar chiqarishlari kerak. Iste'molchilar yaxshi, sifatli, chiroyli mahsulot olishga harakat qiladi va shu sababli sifatli korxonalar sifat darajasi oshib borganda mahsulotni ishlab chiqarish uchun qilinayotgan harajatlar boshida sekin oshadi, chunki ishlab chiqarish berilgan talablarni osonlik bilan bajaradi, keyinchalik sifat darajasi o'sishi bilan harajatlar keskin oshib ketadi. Oxiri shunday chegaraga yetib boradiki, harajatlar cheksizlikka intiladi.

1.3. Sifatni boshqarishning majmuaviy tizimlari va mahsulot sifatining aniqlash usullari.

Hozirgi davrda chop etilgan ilmiy adabiyotlarda mahsulot sifatini ko'rsatkichlariga yetarli darajada keng e'tibor berilib kelingan. Shuning asosida ularning umumlashgan holda 10ta guruhga bo'lgan. U quyidagi rasmda berilgan:

1) Ahamiyati bo'yicha – bu ko'zlangan maqsadda foydalanish evaziga olingan samara hisoblanadi va mahsulot foydalasnish doirasida kelib chiqadi.

a) Ishlab chiqarish – texnik maqsadlarga mahsulotlarning ko'rsatkichlari bu ularning unumdorligi hisoblanadi. Ma'lum bir davrda bu mahsulot yordamida qancha hajmda mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish mumkin.

2) ishonchlilik ko'rsatkichi – mahsulotni bir tartibda ishlay olishi, ta'mir bobligi va uzoq davr xizmat qila olishi. Boshlanayotgan mahsulot xususiyatlaridan kelib chiqib chidamliligini xarakterlovchi ko'rsatkichlar 4ta guruhga bo'lishimiz mumkin:

a) ayrim mahsulotlar bo'yicha odamlarga xavf tug'dirmasligi doimiy bir tartibda ishlay olishidir yoki ishonchlilikning yagona ko'rsatkichi hamdir. Bu eng zarur joylar elektr asboslar, avtomobillar tarmoq tizimi, boshqaruv tizimidir. Ayniqsa havo kemalarida bu ko'rsatkich asosiy ham yagona hisoblanadi;

b) o'z holatini saqlab turish – bu mahsulotlarning saqlash va tashish davrida o'z xususiyatini ushlab turishdir. Bu ko'rsatkich ko'proq oziq – ovqat mahsulotlariga xosdir va shu tarmoqda alohida ahamiyatga ega;

c) Ta'mirbopligi – bu kelgusi davrda ta'mirlash vazifasini bajarishi, o'rtacha ta'mir sarfi qiymati va boshqa ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi;

d) Uzoq muddatli xizmat qilishi – bu mahsulotni qurilmani ish holatida ushlab turishga qilingan harajat miqdori bilan xarakterlanadi.

3) Texnologik ko'rsatkichi – mahsulotning yuqori mehnat unumdorligini ta'minlash, tayyorlash va ta'mirlash jarayonidagi qabul qilingan konstruktiv texnologik qarorlar samarasi, asosan texnologik yordamida mahsulot ishlab chiqarishni yalpilik xususiyati materiallarni oqilona ta'mirlash, mehnat material va vaqtdan foydalanish ta'minlanadi;

4) Standartni va unifikatsiya ko'rsatkichlar – bu mahsulot standartlar bilan ta'minlanganligi, asosiy qismlarni unifikatsiyalashuvi original mahsulotlar qancha kam

bo'lsa, shuncha yaxshi bu mahsulot ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar uchun ham zarur;

5) Ergonomik ko'rsatkichlari - insonlarni mahsulotlar bilan ham harakatlanish hamda bog'liqlik bo'lib, ulardan foydalanishdagi ruhiy, fiziologik va gigienik xususiyatlarida ko'rinadi. Bular trakterni boshqarishdagi qulayliklar, qutqaruv krani kabinasida konnditsioner, yorug'lik, temperatura, namlik, chang hamda shovqin havo bug'lari va hakoza;

6) Estetik ko'rsatkichlari – bu ma'lumotlarni ifodalanishi va tuzilishining qulayligi, mavzuning to'laligi, bajarishning takomillashganligi va mahsulot tovar ko'rinishining qa'tiyligi;

7) Tashishga qulaylik ko'rsatkichlari – bu mahsulotni tashishga moslashtirilganligi;

8) Egalik – huquqiy ko'rsatkichlarga patent sofligi. Patent himoyalanganligiga kirib raqobatbardoshlikni aniqlashning asosiy omili hisoblanadi. Egalik – huquqiy ko'rsatkichlarni aniqlash va mahsulot va yangi texnik qarorlarni mavjudligi va mamlakat tomonidan patent himoyalanganligi, saodat ishlanmasi ro'yhatidan o'tganligi va tovar belgisi ishlab chiqarayotgan mamlakat yoki chetga chiqargan mamlakatlarga;

9) Ekologik ko'rsatkichlar – bu atrof-muhitni zararli moddalar bilan ifloslangan mahsulotni ishlab chiqarish va foydalanish jarayonidir. Misol korxonada mahsulot ishlab chiqarish natijasida u tomonidan atrof-muhitga chiqariladigan gazlar, zararli chiqindilar, ularni tashish jarayonida ifloslantirilishi va hkz.;

10) Xavfsizlik ko'rsatkichlari – iste'molchi yoki mahsulotdan foydalanuvchiga xavfsizlikni ta'minlash xususiyatlari. U o'rnatish jarayonida, tashish jarayonida va foydalanish jarayonida yuzaga keladigan xususiyatlar.

Yuqoridagi barcha sanab o'tkazilgan ko'rsatkichlar yig'indisi mahsulot sifatini shakllantiradi. Mahsulot sifatini estetik jihatdan insonni quvontiradigan o'z vazifasini yaxshi bajaradigan odamlar ehtiyojlarini to'la qondiradigan bo'lishadi. Bu ko'rsatkichlardan tashqari asosiylari ularning bahosihamdir. Shuning uchun baho mahsulot sifati bilan uzviy bog'langan yoki baho yordamida mahsulot sifati ortishi uchun qilingan qo'shimcha sarflar qoplanadi.

Har qanday xaridor mahsulotni sotib olish jarayonida uning uchun to'langan haq, foydalanish oqibatida qoplanadimi, taqqoslab ko'radi. Baho bilan bir qatorda mahsulotni foydalanish xususiyatlariga tavsifnoma berish ham zarur, chunki

foydalanish davrida ta'mirga muhtoj bo'ladi u ortiqcha harajat hamdir. Agar uzoq muddat xizmat qilsa bu sarflar o'z-o'zidan qisqaradi. Ayrim hollarda ta'mir sarflari bahodan ortib ketadi. Bu samarasiz hisoblanadi.

Eng iqtisodiy qulay sifat deyilganda, mahsulot sifati bilan harajat orasidagi munosabat tushuniladi, yoki mahsulot sifati birligi bahosini quyidagi ko'rinishda belgilaymiz:

$$K_{opt} = Q / C_z,^6$$

Bunda K_{opt} – iqtisodiy optimal sifat;

Q – mahsulot sifati;

C_z – mahsulot sotib olish va foydalanish harajatlari.

Bu yerda maxrajini toppish unchalik qiyin emas, u mahsulot sotib olish bahosi bilan baholanishi mumkin. Eng murakkabi suratni aniqlashdir. Bu sohada hozirda "kvalimetriya" degan fan izlanish olib borilmoqda. Bu yordamiida sifatni miqdor jihatdan baholashni uslubini yaratgan. Demak hozirgi zamon ishlab chiqarish jarayonida mahsulot sifati korxonaga samaradorligi, foydaliligini, asosini tashkil etadi.

Korxonalar (firma) larda mahsulot sifatini boshqarish sistemali amalga oshiriladi, ya'ni ularda mahsulot sifatini boshqarish tizimi faoliyat ko'rsatishi kerak. Bu yerda mavjud tashkiliy tizim bo'lib ularda har bir jarayon manba va tadbirlar javobgarligi aniq belgilab qo'yilgan mahsulot sifatini boshqarishga zarur bo'lgan.

Hozirgi paytda ISO 9000 standartlari keng tarqalgan bo'lib, unda mahsulot sifatini boshqarishni xalqaro tajribalari keng tarqalgan. Bu hujjatga asosan korxonada mahsulot sifatini boshqarish siyosati asosida ko'rsatilgan - mahsulot sifatini boshqarish tizimi ta'minlashni yaxshilash va sifatni boshqarishini o'z ichiga oladi.

Mahsulot sifatini boshqarish korxonalar faoliyati qonuniyatlari shaklida tashkil etilishi mumkin. Yoki uzoq muddatli maqsad shaklida.

U o'z ichiga quyidagilarni oladi:


- Korxonalar iqtisodiy ahvolini yaxshilash;
- Mahsulot sotish yangi bosqichlarini yaratish va mavjudlari kengaytirish;

⁶ Manba: I.R.Nurimbekov, S.I.Axmedov, 'Ishlab chiqarish menejmenti' o'quv qo'llanma: Toshkent-2008

- Ilg'or korxonalar darajasida mahsulot texnik holati bo'yicha o'zib ketish;
- Ma'lum tarmoq yoki ma'lum hudud iste'molchilari talablarini ta'minlashga qaratish va tayyorlangan mahsulotlar kamaytirish darajasi;
- Mahsulot sifatining asosiy ko'rsatkichlarini yaxshilash;
- Kafolat muddatlarini uzaaytirish;
- Serviz xizmatini kengaytirish.

Mahsulot sifatini boshqarsih tizimi bilan bir qatorda sifatni o'rganish va amalga oshirish dasturi asosida sifat to'garagi katta rol o'ynaydi.

Sifatni boshqarishning majmuiy tizimlari bugungi kunga kelib O'zbekistonda 55taga yaqin korxonona ISO 9001 bo'yicha sertifikat oldi. Bu esa ushbu yo'nalishdagi ishlar ancha faollashib borayotganligini ko'rsatadi. Ammo shunga qaramay bu borada qo'shni mamlakatlardagi maromga erishganimiz yo'q. Masalan Rossiyada-1500, Ukrainada 1000ga yaqin va Qozog'istonda qariyb 500 korxonona ISO 9001 sertifikatini oldi. O'zbekistonda 155taga yaqin korxonona ISO 9001qo'llanishi ustida ish olib borilmoqda. Iqtisodiyoti tez o'sib borayotgan va endilikda o'z mahsulotlari bilan dunyoning deyarli barcha bozorlariga kirib borga bitta Osiyo mamlakati ISO 9001 sertifikatsiyasini olgan 70000ta korxonona ega bu Xitoy!



8. Sotish

7. O'rash va saqlash

Afsuski, O'zbekistonning ko'plab korxonalari ISO 9001 keltirishi mumkin bo'lgan foydani to'g'ri baholamayabdi.

Boshqarish tizimi oliy bo'g'in rahbarlaridan boshlanadi. Aynan oliy bo'g'in rahbarlari firma oldingidan ko'proqqa qodir degan strategiyadan kelib chiqishi kerak. Firmani tashkili tuzilmasida sifatni boshqarish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus bo'linmalar nazarda tutilishi mumkin. Sifatni boshqarish funksiyalari bo'linmalar o'rtasida taqsimlanishi firma faoliyati hajmi va xususiyatlariga bog'liq.

Bugungi kunda sifatni boshqarishda mahsulot sifati yuqori barqarorligi va turg'unligi kafolati bo'lgan sifat menejmentining sertifikatlashtirilgan tizimi muhim ahamiyatga ega. Sifat tizimining sertifikati firmaga bozorda raqobat ustunligini saqlab qolish imkonini beradi.

Sifatni boshqarish - bu ma'lum bir harakat hisoblanib, mahsulotning yaratilishi yoki foydalanish jarayonida amalga oshiriladi. Asosiy maqsadi zaruriy daromadi mahsulot sifatini qo'llab-quvvatlash, ta'minlash va belgilashdir.

Boshqaruv qarorlarini ishlab chiqarish asosan haqiqiy to'plangan ma'lumotlarni boshqaruv jarayoni tavsifnomasiga taqqoslash asosida amalga oshiriladi, oldindan belgilangan boshqaruv dasturi bo'yicha. Bu yerda mahsulot sifatini tasvirlovchi

normativ hujjatlar, bo'lim standartlar, texnik shartlar, chizmalar va boshqalar xizmat qiladi. Ularni sifatni boshqarish dasturini asosiy qismi deb qarash shart.

Har bir korxonaning asosiy vazifasini tashkil etish ishlab chiqarilgan mahsulot sifati hisoblanadi. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish, ko'rsatayotgan xizmat yoki ishlab chiqarish mahsulot bilan asoslanadi. Ular:


- Aniq belgilangan ehtiyojlarga javob beradi, foydalanish yoki mo'ljallangan bosqichlarda;
- Iste'molchilar talabini qondiradi;
- Foydalanilayotgan standart va texnik shartlarga mos kelishi;
- Harakatdagi qonunlar va boshqa talablarga mos kelishi;
- Iste'molchiga raqobatbardosh bahoda taklif etilishi;
- Foyda olishga qaratilishi;

Boshqaruv ta'sirlar sifatni boshqarish tizimida ikkita masalani yechishi mumkin:

- Boshqarilayotgan jarayonni boshqarish dasturi joriy qilgan holatda saqlab turish, ya'ni ishlab chiqarish tizimini rejalashtirilgan sifat darajasida mahsulot chiqarishni ta'minlaydigan sifat darajasida barqaror holda saqlab turish;
- 'Standartlashtirish va sertifikatlashtirish asoslari' fani texnika, menejment va marketing sohalari yo'nalishida bakalavrlar va muhandislar tayyorlashda o'tilishi lozim bo'lgan fanlardan hisoblanadi. Oliy ta'lim andozasidan kelib chiqib, ushbu fan talabalarda standartlashtirish va sertifikatlashtirish va metrologiya bo'yicha zarur va yetarli bo'lgan asosiy tushunchalarni shakllantiradi.

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- mahsulot, ish va xizmatlarning (keyingi o'rinlarda 'mahsulotlar' deb yuritiladi) insonlarning hayoti, salomatligi va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilarning va davlatning manfaatlarini bosishini bir-biriga himoya qilish;
- Mahsulotlarning o'zaro bir-birining o'rnini bosishini va bir-biriga monandligini ta'mionlash;
- Fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek, aholi va xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligini ta'minlash;
- Barcha turdagi resurslarni tejashga, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashga ko'maklashish;
- Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirish;
- Tabiiy va texnogen falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar yuzaga kelishi, xavf-xatarni hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavsizligini ta'minlash;
- Iste'molchilarni ishlab chiqarayotgan mahsulotlar nomenklaturasi to'g'risidagi to'liq va ishonchli axborotlar bila ta'minlash;
- Mudofaa qobiliyati va safarbarlikka tayyorgarlikni ta'minlash;
- O'lchashlarning yagonaligini ta'minlash;

- Ishlab chiqarish mahsulot sifati to'g'risidagi ma'lum qilgan ko'rsatkichlarni ta'minlash;

Standartlashtirishning asosiy vazifalari:

- Iste'molchi va davlatning manfaatlari yo'lida mahsulotning sifati va nomlariga nisbatan eng maqbul tasdiqlash talablarni qo'yish;
- Davlat respublika fuqarolari va chet el ehtiyoji uchun tayyorlangan mahsulotga kerakli talablarni belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini va uni ishlab chiqaruvchi qoidalarini yaratish, ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek hujjatlarni nazorat qilish;
- Standart talablarini sanoati rivojlangan mamlakatlarning xalqaro, milliy va mintaqaviy standartlar talablari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash;
- Mahsulot, uning tarkibiy qismlari, xom-ashyo va materilallar ko'rsatkichlari va energiya tavsiflari kelishib olinishi va bog'lanishi;
- Material va uning sarfini kamaytirish, kam chiqimli texnologiyalarni qo'llash;
- Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tajribadan keng foydalanish, mamlakatning xalqaro va mintaqaviy standartlashtirishda ishtirok etishini kuchaytirish;
- Xorijiy mamlakatlarning talablari O'zbekiston Respublikasi xalq xo'jaligi ehtiyojlarini qondirgan xollarda ularning xalqaro, mintaqaviy va milliy standartlarini mamlakatimiz standartlari va texnikaviy taraqqiyotida to'g'ridan-to'g'ri qo'llash tajribasini kengaytirish;
- Mahsulotni standartlashtirish va uning natijalaridan foydalanish sohasida xalqaro xamkorlik qilish ishlarini tashkil etish
- Texnik-iqtisodiy axborotlarni tasniflash, kodlashtirish tizimini yaratish va joriy etish;
- Sinovlarni me'yoriy texnik jihatdan ta'minlash, mahsulot sifatini sertifikatlashtirish, baholash va nazorat qilish.

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarning tashkil etilishini muvofiqlashtirish va maqbul darajada olib borilishini quyidagi idoralar ta'minlaydi:

- Xalq xo'jaligi tarmoqlarida standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya bo'yicha O'zbekagentligi (2011-yil 3-oktabrdan boshlab);

- Qurilish sanoati loyihalash va konstruksiyalash sohasida-O'zbekiston Respublikasi davlat arxitektura qurilish qo'mitasi;
- Tabiiy resurslardan foydalanish va tartobga solish va atrof-muhitni ifloslanishidan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Davlat Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi;
- Tibbiy yo'nalishdagi mahsulotlar, tibbiy texnika buyumlar, dori-darmonlar va respublika sanoatida ishlab chiqariladigan mahsulotlar tarkibida inson uchun zararli moddalar miqdorini tartibga solish bo'yicha-O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash Vazirligi amalga oshiradi.

Respublika standartlashtirish rejasiga birinchi navbatda milliy standartlar talablari bilan uyg'unlashtirish, kishilarning hayoti va salomatligi uchun xavsizligi, atrof-muhitni muhofaza qilinishi, iste'molchilar huquqining himoya qilinish, milliy ijtimoiy-iqtisodiy va texnikaviy dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlaydigan milliy standartlarni ishlab chiqish kiritiladi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlarida standartlashtirish , sertifikatlashtirish va metrologiya bo'yicha O'zbekagentligining vazifalari:

- o O'zbekiston Respublikasi hududida barcha jismoniy shaxslar mulk shaklidan qat'iy nazar yuridik shaxslarga O'zbekiston Respublikasining 'Standartlashtirish to'g'risida', 'Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida', 'Metrologiya to'g'risida', 'Oziq-ovqat mahsulotlarining sifati va xavfsizligi to'g'risidagi ' qonunlar hamda standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi boshqa huquqiy va me'yoriy aktlarga amal qilinishi ustidan nazoratni ta'minlash;
- o Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari asosida standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya sohasidagi yagona davlat siyosatini amalga oshirish;
- o Xalqaro standartlar (ISO) bo'yicha yagona ma'lumotlar bazasini yaratish;
- o Mahsulot va xizmatlarning sertifikatlashtirishni yangi tartibini ishlab chiqarish va ularning ijrosi ustidan nazoratni amalga oshirish;
- o Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish va sinovlarni o'tkazishni zamonaviy tizimini tashkil etish.

3.2 Mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimini takomillashtirish.

Ma'lumki, mahsulot sifatiga qo'yiladigan asosiy talablar mahsulot yoki xizmatga bo'lgan talablardan va iste'molchilarning talablaridan iborat bo'ladi. Shundan kelib chiqib sifatni boshqarish kompleks tizimi ushbu talablarni sifat faoliyati natijasini va uni nazorat qilish jarayonini ta'minlash zarur.

Albatta o'tish joizki, boshqarish usullari va uslublari ming yillar davomida shakllanib va rivojlanib kelmoqda. Respublikamizda mustaqillik yillarida mahsulot sifatini boshqarish kompleks tizimining yangi tizimi yaratilmoqda. Sifatni nazorat qilish zaruriyati ob'ektni boshqarish-mahsulot sifatini boshqarish-mahsulot sifatini ishlab chiqish, foydalanish yoki iste'mol qilishdan yetarli daromadni saqlab turish, mahsulot sifatini maqsadli ta'sir etuvchi sharoit va omillarni doimiy ravishda nazorat iborat bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- Mahsulot sifatini nazorat qilish;
- Mahsulot sifatini baholash;
- Mahsulot sifatini boshqarish va unga tizimli yondashish bosqichlari;
- Davlatning vazifasi sifatida mahsuloti va unga ta'sir etuvchi omillar davlat standartlari bilan o'zaro bog'liqligini ta'minlash.

Har qanday boshqarish uslubi asosida sifatni texnik nazorat qilish va uni tashkil etish turadi.

Korxonada asosiy vazifani boshqarishning muhim bo'g'inlaridan biri bo'lgan texnik nazorat bo'limi bajaradi (TNB).

Sifat muommosining murakkabligi korxonaning sifat xizmatini tashkil etishda kompleks yondashuvni talab qiladi. Chunki bunda sifatni nazorat qilishning barcha bo'limlarini birlashtirish maqsadga muvofiq. Faqat shu asosda sifatni rag'batlantirish va tahlil qilishini ta'minlash mumkin.

Sifatni nazorat qilish vazifasini amalga oshirishda o'lchov vositalaridan, elektron va kompyuter qurilmalaridan faqat to'g'ri foydalanibgina qolmay, balki ularning holatini nazorat qilib borish zarurdir.

Bundan tashqari kadrlarni o'qitish va malaksini oshirish dasturlarini ishlab

chiqish o'z navbatida sifatni oshirish malakalarini samarali hal etish, xodimlarni rag'batlantirish va motivlashtirishni ta'minlash kerak. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ko'pgina korxonalar sifat xizmatini to'la rivojlantirishga qodir emas. Ayniqsa kichik korxonalarda bu masala ancha og'ir va bunday korxonalarda deyarli sifat bo'yicha bir muxandis menejer bo'lishi mumkin.

Zamonaviy texnik nazoratning ilmiy asosi sifatida axborot texnologik va matematik-statistik usullaridan foydalanish mumkin. Mahsulot sifatini boshqarishni ikki usulda ta'minlash mumkin: mahsulotni navlarga ajratish va texnologik aniqlikni oshirish.

Texnologik jarayonlarni boshqarish nazorat kartalari yordamida sifatdagi o'zgarish sababini aniqlash va ularni bartaraf etishni monitoring qilishdan iboratdir.

Sifatni boshqarish konsepsiyasi (Total quality management TQM) – shundan iboratki, barcha sohalarda tadqiqot to mahsulotni sotguncha va undan keyin sifatni boshqarishda tizim va uslublarni qo'llash hisoblanadi. TQM konsepsiyasi xalqaro tavsifga ega bo'lib, u mahsulot sifatini va korxonaning raqobatbardoshligini oshirishni samarali boshqarish maqsadida uslublar, vositalar, shakllarning umumiyligidir. TQM tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Yangi mahsulotni tadqiq qilishdagi nazorat;
2. Mahsulot sifatini takomillashtirish va xom-ashyo materiallarining sifatini rejalashtirish;
3. Xom-ashyo va materiallarning korxonaga kirishdagi nazorati;
4. Tayyor mahsulot nazorati;
5. Mahsulot sifatini baholash;
6. Ishlab chiqarish jarayonini baholash;
7. Mahsulot sifati va ishlab chiqarish jarayoni nazorati;
8. Ayrim jarayonlar tahlili (mahsulot sifati sohasidagi maxsus tadqiqotlar);
9. Mahsulot sifati haqidagi ma'lumotlardan foydalanish;
10. Mahsulot sifati haqida ma'lumot beruvchi uskunalarni nazorati;
11. Sifatni ta'minlovchi uslublarga o'rgatish, kadrlar malakasini oshirish;
12. Kafolatlangan xizmat;

13. Sifat sohasida ishlarni muvofiqlashtirish;
14. Yetkazib beruvchilar bilan birgalikda sifat borasidagi aloqalar;
15. PDCA (Plan-do-check- action) siklini ishlatish;
16. Sifat to'garaklari ishi;
17. Inson omilidan foydalanish;
18. Sifat doirasidagi ishlarni 'funksiyalar orasida' usuli bilan olib borish;
19. Milliy sifat korxonalarida ishtirok etish;
20. Sifat siyosatini ishlab chiqish;
21. Moliyaviy foliyatda xizmatchilarning qatnashuvi;
22. Sifat madaniyati tuzulishida olib borilgan chora-tadbirlar
23. Boshqaruv kadrlarni sifat faolyatini boshqarishda tayyorlash;
24. Sifat faoliyati doirasida ma'suliyatni oshirish.

Sifatni umumboshqarish – bu nazariy qo'llanma emas, balki sifatni oshirish jarayonini boshqarish texnologiyasi 3 qismdan iborat:

1. Bazali tizim;
2. Texnik ta'minot tizimi;
3. Sifatning umumboshqaruvini rivojlantirish va takomillashtirish tizimi.

Bazali tizim – tadqiqot va tahlil qilish uchun qo'llanadigan vositadir. Ular umuman olingan matematik apparat va nazorat qilishning statistic usullaridan foydalanishga asoslangan. Texnik ta'minot tizimi xodimlarini texnik jihozlarni ishlatish va undan to'g'ri foydalanishni o'rgatish usullari va dasturlaridir. TQMni rivojlantirish va takomillashtirish tamoyillari va mohiyati o'zida ilmiy yondashuvlar bozor munosabatlari amal qilishining iqtisodiy qonunlarini, tashkil etish qonunlarini sifatni boshqarish strukturasi hamda bozor sharoitiga qarab moslashishini aks ettiradi.

Sifatning umumboshqaruvi maqsadi mahsulot va xizmatlar sifatini oshirish hisoblanadi.

TQM samaradorligi quyidagi 3ta asosiy shartlarga bog'liq bo'ladi.

1. Yuqori lavozimdagi shaxs korxonada sifatni oshirish borasida qa'tiyatliligi;
2. Investitsiyalar texnikaga emas, balki odamlarga xizmat qiladi;
3. Tashkiliy tizimini aynan TQM da shakllanadi yoki uning asosida tashkil topadi.

Korxonaga o'zaro bir-biriga bog'liq unsurlardan iborat tizim nuqtai nazaridan qarash zarur tashkiliy unsurlari hamda tashkilotning tashqi muhiti bir biriiga juda bog'liqligi tufayli muommolar ososn va tez hal etiladi. Boshqa tashkiliy muommolar kabi kelajakda unumdorlikni oshirish muommosi ham kompleks yondashuvni talab qiladi. Unumdorlikka ham tashqi muhitning, ham tizim o'zgarish jarayonining turli omillari ta'sir etadi.

Hozirgi paytda ko'pchilik tadbirkorlar darhol foyda olishga intilish noto'g'riligini va uzoq istiqbolni hisobga olish zarurligini tushunib yetdilar. Unumdorlikning istiqbolga mo'ljallangan kompleks rejalarini qisqa muddat bilan mustahkamlash zarur.

Bu bosqich mahsulot sifatni takomillashtirishda tovarning raqobatbardoshligi darajasini oshirishga zaruriyat paydo bo'ladi. Tovarning raqobatbardoshlik darajasini oshirish bozorni takomillashtirish, marketingni takomillashtirish, tovarni takomillashtirish orqali erishiladi.

Jamoani ijtimoiy rivojlantirishning kompleks dasturi masalasi shu jumladan atrof-muhit ekologiyasi masalalari birinchi o'ringa chiqadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda dasturi masalasi, rahbar xodimlar va mutaxassislarining ma'suliyati ortadi. Bu ishlab chiqarish menejmentiga qator o'zgartirishlar kiritishni talab etadi.

Kompleks sifat ko'rsatkichlari esa ularning bir necha xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgandir. Masalan, meva va sabzavotlarning tashqi ko'rinishi, ularning rangi, pishgan pishmaganligi, shakli, o'lchamlari, shikastlanganligi yoki shikastlanmaganligi kabi bir nech xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Mahsulotlarning sifat darajasini aniq ifodalash uchun kompleks sifat ko'rsatkichlarini aniqlash zarur.

Mamlakatimizda sifatni boshqarishning kompleks tizimi tartibi va tarmoq tartibi mavjud bo'lib, ular mahsulot sifatini yaxshilashga qaratilgandir.

3.3 AQSH va Yaponiya firmalaridagi sifatni boshqarish tizimi tajribasidan foydalanish.

Zamonaviy sifat menejmenti sifatni boshqarish hamda konsultantlar dasturlari bo'yicha xorijiy korporatsiyalar bajargan tadqiqotlar natijalariga asoslangan. Bu

‘XYULETT – Pakkard’ kabi mashhur korporatsiyalar tajribasidir. 1980-yillarda bu qator boshqa firmalar siyosatiga F.B.Kresbi, U.E.Demping, A.B.Feygenbaum, K.Isoqova, J.M.Djuran ishlanmalari ta’sir qilgan.

Yetakchi firmalar faoliyatining asoslari quyidagilar bo’lib keldilar:

- Oliy bo’g’in rahbarlari manfaatdorligi;
- Ish sifatini yaxshilash bo’yicha kengash tashkil qilish;
- Barcha rahbarlar tarkibini ishni yaxshilash jarayoniga jalb qilish;
- Jamoa ishtirokini ta’minlash;
- Individual ishtirokni ta’minlash;
- Tizimlarni takomillashtiruvchi guruhlar yaratish;
- Ta’minlovchilarni to’laroq jalb qilish;
- Bajarish tizimlari ishlash sifatini boshqarish tizimlari ishlash sifatini taxminlash;
- Ishni yaxshilashning qisqa muddatli rejalari va uzoq muddatli strategiyalarni ishlab chiqarish va amalga oshirish;
- Xizmatlarni tan olish tizimini yaratish;

Ayniqsa, boshqarish tizimlar ishlash sifatini ta’minlash yo’nalishiga to’xtalib o’tish kerak.

Sifatni boshqarish bo’yicha konsultantlar sifat va ishonchlilikni boshqaruvchi xizmatlar va xarakat va resurslarni muommolarni aniqlash va xatolarni to’g’rilishga yo’naltirilganlarga e’tibor berishgan.

Standartlashtirish sohasida ham holat shunday, ya’ni standartlarni turli mavqega ega yuzlab tashkilotlar ishlab chiqadi, shuning uchun mavjud sertifikatsiyalash tizimlari uchun umumiy me’zonlar yaratish bo’yicha xarakat qilinmoqda. Shu maqsadda sinov laboratoriyalarini appreditatsiyasi milliy tizimi yaratilgan va sertifikatsiyalash tizimlarini ro’yhatga olish tizimini yaratilmoqda.

AQSHda sertifikatlashtirish milliy miqyosda ham xalqaro miqyosda ham mahsulot sifatining kafolati bo’lib xizmat qiladi. Bu mamlakatda sertifikatsiyalashtirish majburiyligi haqidagi qonun amalda. Sertifikatsiyalashtirishning zaruriyati esa ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab

chiqarayotgan mahsulotning yuqori darajada raqobatbardoshligini ta'minlashga erishishni talab qiladi.

AQShda sug'urta kompaniyalar milliy laboratoriyasi amerika gaz sanoati korxonalar laboratoriyasi, Nebraska shtatidagi qishloq xo'jaligi texnikasini butlash markazi qoshida yaratilgan sertifikatsiyalashtirish tizimlari katta obro'ga ega. Ular bilan bir qatorda 2000dan ortiq tijorat sinov laboratoriyalari mahsulotning keng assortimentini standart talablariga muvofiqligini sinash bo'yicha o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

Sertifikatlashtirish amalga oshiriladigan standartlar sifatida Amerika standartlar instituti UL standartlari yong'indan saqlash milliy assotsatsiyasi standartlari va boshqalar xizmat qiladi. Bu odatda AQSH me'yoriy hujjatlari hisobga olmagan xalqaro standartlar va boshqa mamlakatlarning standartlari sertifikatsiya o'rnatish o'tkazish uchunqabul qilinmaydi. Yaxshi import qilinadigan mahsulotning ma'lum diskriminatsiyasi mavjud.

Yaponiyadagi sifatni boshqarish tizimlari.

Yaponiyada 1949-yilda mamlakat olimlar va muxandislari uyushmasi qoshida sifatni nazorat qilish muommosi o'rganish bo'yicha maxsus guruh tashkil qilingan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- Korxonalar barcha bo'linmalari va hamma xodimlari ishtirok etadigan mahsulot sifatining to'la nazorati;
- Sanoat tarmoqlar bo'yicha mahsulot sifatini nazorati sohasida o'qitish;
- Sifat to'garaklari faoliyati;
- Sifat nazoratining statistic usullarini qo'llash;
- Sifat g'oyalarini targ'ibot qilish bo'yicha milliy kompaniya

Sifat muommolariga bunday fundamental yondashishda Yaponiyada sertifikatlashtirish yapon tovarlarining yuqori sifat darajasini ta'minlash va jahon bozorida ular raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida ko'riladi.

Sanoat standartlashtirish qonuniga binoan mahsulotni yapon industrial standartlari JIS talablariga muvofiqligi belgisi bilantamg'alach ko'rsatilgan. U mamlakatda sanoat standartlarini ommalashtirish samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi hamda firmalar darajasida sifat nazorat usullari tarqalishiga ko'maklashadi'

JIS belgisidan foydalanish huquqini sanoatning tegishli tarmoqlar vazirlari beradi. Muvofiqlik belgisi 2 shaklda bo'ladi:

'A' va 'B' shakllari, ular mahsulot texnologik jarayonlar milliy standartlariga muvofiqligini belgilash uchun qo'llanadi. Hukumat JIS belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va texnologik jarayonlar sifatini kafolatlaydi.

19800-yilgacha xorijiy ishlab chiqaruvchilarga JIS belgisini qo'llash man etilar edi. Keyinchalik xorijiy yetkazib beruvchilar yapon ishlab chiqaruvchilari bilan bir qatorda sertifikatlashtirish protsedurasida qatnashish huquqiga ega bo'ldilar. Ko'rib chiqilgan muvofiqlik belgisi JIS bilan bir qatorda Yaponiyada ishlov berilgan oziq-ovqatlar qishloq xo'jalik va baliq mahsulotlari uchun JIS belgisi ta'sis qilingan. U ozoq-ovqat, qishloq xo'jalik va o'rmon mahsulotlarini standartlashtirish va tegishli ravishda tamg'alah bo'yicha qonun asosida kiritilgan.

Sertifikatlashtirish tizimlari yapon sanoatining barcha tarmoqlari:

Mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati va boshqalarni qamrab oladi. 1983-yil martida Yapon va xorijiy korxonalariga tegishli ravishda tamg'alangan mahsulot chiqarish huquqini beradigan 16000 va 20000 litsenziya berilgan.

Hozirgi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarda sertifikatlashtirish barcha sohalarda tadbiq etilmoqda. Bu ikki omil bilan belgilanadi:

1. Iste'molchiga mahsulot sifatining barqaror darajasini ta'minlashga intilish;
2. Ichki va tashqi bozorlarda yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga intilish.

Agar raqiblardan biri u ishlab chiqqan mahsulot sertifikatlashdan o'tdi boshqa radobat qiluvchi firmalar zudlik bilan o'xshash choralarni ko'rishga majbur.

Sertifikatlashtirish rivojlanayotgan mamlakatlarda ham keng tarqalgan. Milliy sertifikatlashtirish tizimlarining tashkiliy tamoyillari uchinchi tomon sertifikatlashtirish tamoyillariga mos keladi.

Yaponiya menejmenti dunyoda o'z o'rnini topgan, mashxur yapon boshqaruv usullari qatorida inson omilini aktivlashtirish va shu jumladan 'sifat to'garaklari' biz ucgu alohida e'tiborga sazovardir.

Yaponiyada sifatni ta'minlash quyidagi yo'nalishlar bo'yicha rivojlanmoqda:

1. Nazoratga asoslangan sifatni ta'minlash;
2. Ishlab chiqarish jarayonini boshqarishga asoslangan sifatni boshqarish;

3. Asosiy e'tiborni yangi xildagi mahsulotlarni ishlab chiqishga qaratilgan sifatni boshqarish.

G'arbda asosiy e'tibor nazoratni kuchaytirish orqali sifatni ta'minlashga qaratilgan bo'lib, maxsus tashkil qilinib, ularga keng huquqlar berilgan, shuning uchun ishlab chiqarish xodimlari orasida nazoratchilar salmog'i juda yuqori. Yaponiyada esa nazoratchilar 5%ni, ba'zi bir firmalarda esa 1%gacha tashkil qiladi. Asosiy e'tibor o'z nazoratiga qaratilgan, sifatni nazorat qilish bo'limi yoki texnik nazoratni boshqarish bilan shug'ullangan. Ammo nazoratchilar ortiqcha xodimlar bo'lib, firmadagi umumiy mehnat unumdorligini pasaytirish, chunki ular hech narsa ishlab chiqarmaydilar. Hozirgi vaqtda Yaponiyada esa ishlab chiqarishning har bir bo'g'ini sifatni ta'minlashga javob beradi va texnika nazorati bo'limining burchi mahsulotni iste'molchi yoki rahbar sifatida tekshiradilar.

Mahsulot sifatini yaxshilashda zarur va muhim omillardan biri sifat to'garaklari (guruhlarining) faoliyatidir. Sifat guruhlari ishchilar, muhandislar va xizmatchilardan tashkil topgan ixtiyoriy jamoayig'ilmalaridir, ularning soni va tarkibi ishlab chiqarishning ehtiyojlaridan va aniq ish sharoitlaridan kelib chiqadi.

Sifat to'garagi – ko'ngilli ravishda sifatni boshqarish muammolari bilan shug'ullanuvchi bir sex yoki bo'limda birga ishlayotgan ishchi va xodimlardan tashkil topgan kichik guruhdir. Sifat to'garaklari sifatni boshqarish faoliyatida doimiy ravishda ishlab, to'garak a'zolarining bilim va mahoratlarini o'sishiga va sifatni boshqarish usullarini qo'llagan holda o'z ish joylarida ishlab chiqish jarayonlarini mukammallashtirishni ta'minlaydi.

Sifat to'garak (guruh) larining asosiy maqsadlari va vazifalari:

- Samarali boshqaruv uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ishlab chiqish;
- Kompaniya xodimlarini mehnat intizomini darajasini ko'tarish va mehnat jamoasining har bir a'zosi ishlab chiqarish kamchiliklariga va sifatga o'zining ongli munosabati oshishini ta'minlaydigan muhit yaratish.

Sifat to'garaklari oldida turgan vazifalarni hal etishda quyidagi orinsiplarni qo'llash kerak bo'ladi:

- Ko'ngillilik;

- Har kim o'z ustida ishlashi (o'qishi, o'rganishi, malakasini oshirishi);
- Guruh bo'lib faoliyat yuritishi;
- Barcha xodimlarni sifat to'garagiga aktiv ishtirok etishi;
- Sifatni boshqarish usullarini amalda qo'llash;
- Ish joyi bilan o'zaro aloqada bo'lish;
- Faollik bilan doimiy ishlash;
- To'garak a'zolarining o'zaro malakasini oshishga, o'rganishga, o'qishga yordam berish;
- Ijodiy izlanuvchanlik va yaratuvchanlik muhitini yaratish;
- Mahsulot sifatini oshirishning muhimligini va shu sohadagi masalalarni hal qilish zarurligini tushuna bilish.

Sifat to'garaklari faoliyatining asosiy g'oyalari:

- Sifat guruhlari korxonada faoliyatining yaxshilanishi va rivojiga katta xissa qo'shadilar;
- Sifat guruhlari xodimlar orasidagi munosabatlarni samimiyligini oshirib o'zaro hurmat va o'z-o'zini qadrlash his-tuyg'ularini oshirishga va ish joylarida sog'lom, ijodiy va do'stona muhit yaratishga imkon yaratadi;
- Sifat guruhlari xodimlarning qobiliyatlarini har tomonlama rivojlanishiga dunyoqarashning kengayishiga va ijodiy qobiliyatlarining rivojlanishiga sharoitlar yaratadi.

Yaponiya davlati dunyodagi rivojlangan mamlakatlar ichida ajralib turadi. Bu ish sifat to'garagiga alohida e'tibor bilan qaraydi. 60-yillar boshida Yaponiyada birinchi marta sifat to'garagi vujudga keldi. Buning sababi bor albatta.

Yaponiya joylashishiga qarab aholisi zich yashaydigan geografiik ob'ekt bo'lib uning yer osti boyliklariga deyarli ega emas. Terriytoriyasining taxminan 70%i texniklarni tashkil etgan bo'lib sanoatning rivojlanishida o'zining xom-ashyosiga xarid bog'lashi o'rinsiz bo'lar edi. Bu holda Yaponiya o'z xalqini oziq-ovqat bilan ta'minlay olmas sanoatni esa turli darajada rivojlantirolmasdi. Sanoat va energetika uchun tashqaridan keltiradigan xom-ashyo tilla, qimmatbaho toshlar va eksport mahsulotlari bilan tanish mumkin edi.

Yaponiya uchun tanlov yo'q: na tilla, na qimmatbaho tosh uning yerosti boyliklarida mavjud edi. Demak eksport, bundan boshqa yo'li yo'q.

Xullas, Yaponiya og'ir sharoitlarga bardosh beroladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga butun bilim va zakovatini sarflashiga to'g'ri keldi. Shuning uchun oxirgi vaqtda Yaponiya dunyo eksportidagi mahsulotlarning ko'p xildan ortiq shaxsiy xiliga yetakchilik qilmoqda.

Bularga dastgohlar, optika asboblari, radio priomniklar, fotoapparatlar yengil va yuk tashuvchi avtomobillar, televizorlar, videomagnitafonlar, texnika mahsulotlari, soatlar, g'ildiraklar, su'niy toladan bo'lgan matolar va boshqalar kiradi.

Yaponiyada sifat to'garaklarini paydo bo'lishi va taraqqiyoti.

AQSHdagi sifatni ta'minlash ko'lamini yetuk olimlardan biri Nyu York universitetining yetuk professori E.Deming faoliyati tomonidan Yaponiya firmalarining yuqori rahbariyatlari uchun tashkil etilgan o'quv kurslaridan so'ng sifat nazorati boshqaruv ko'lamiga yoyildi va shundan so'ng Yaponiya sifat nazorati firmasi o'z uslubini topdi va 1954-yilda jahonda birinchi o'ringa chiqdi.

Yaponiya olimlar va muhandislar uyushmasi ittifoqi tomonidan Yaponiyaga 1950-yilda taklif etilgan sifat nazoratini statistik usullarini birinchilardan ishlab chiqqan E. Deming tomonidan hamma sohadagi injenerkar uchun tashkil etilib 8 kunlik o'qitilgan leksiyalar ham shular jumlasidandir. 1961-yildan boshlab Yaponiya tashkilotlarida sifat nazoratini ro'yobga ciqarish uchun bo'limlar tuzila boshlandi va javobgar shaxslar belgilandi. Keying qadam sifat nazoratini shunday formasiga o'tish bo'ldiki, bundan nafaqat ishlab chiqaruvchining balki iste'molchini qondirishdir umumsifat nazoratidir. Shunday qilib sifatni ko'tarish bir vaqtda bozorda raqobatbardosh mahsulotni tannarxini tushirib belgilash Yaponiya firmalarini asosiy ishlab chiqarish maqsadi bo'lib keldi.

Yuqori sifatli mahsulotni ta'minlab beruvchi ishlab chiqarishni tashkil qilishni Yapon menejerlari malakali mehnat zaxiralari (resurs) yetishmovchiligi muammosiga duch kelishdi, mahsulotni sifati ularga uzliksiz bog'liuq edi.

Yaponiyada firmalar ishlab chiqarish munosabatlari va aniq maqsad asosida birlashib uyushgan jamoani tashkil etadi. Firmaning miqyosidan kelib chiqqan holda firmani tashkil etish ierarxik tuzilish orqali ifodalanadi.

Shunday qilib sifat nazorati to'garaklari yoki sifat to'garaklari ro'yobga chiqdi. Natijada Yaponiyadagi voqealar quyidagicha rivojlandi:

- 1967-yil iyun oyida 10000 ga yaqin shunday to'garaklar qayd qilingan bo'lsa;
- 1969-yilda bu raqam 1967-yilga nisbatan ancha ko'pni tashkil qildi;
- 1979-yilning iyun oyida esa 100000 ni tashkil qildi;
- 1987-yil mart oyida sifat to'garaklari soni 50000 ni tashkil qilib bu ko'rsatkich har yili 10000 ga oshib bormoqda;

Uning qatnashchilarining soni esa milliondan oshib ketdi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Yaponiyadagi to'garaklar o'z oldiga ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish hisobiga mahsulot sifatini tubdan oshirishni maqsad qilishgan.

Yaponiya usulining yana bir xarakterli tarafi to'garaklarning ishlarini muntazam ravishda olimlar va muxandislar ittifoqi tomonidan kuzatladi, o'rganiladi va tahlil qilib boriladi.

Hozirgi vaqtda sifat to'garaklari AQSH da, Yevropa mamlakatlarida hamda Xitoy Xalq Respublikasida ham faol ishlab turibdi.

Yaponiyadagi sifat to'garaklarining keng yoyilishi va ular faoliyatidagi yutuqlarning negizi tashkilotlarning faoliyati tashkil topishi va ishlab chiqarish madaniyatining o'ziga xos milliyligidadir.

Yaponiyadagi zamonaviy tashkilot madaniyati 2-jahon urushidan so'ng tus oldi. Uning o'ziga xoslik tomonlaridan biri ishchi xizmatchilarni umrbod ishga yollash tizimi mavjudligida, bu esa ularga kelajakka ishoncha borlik kafolatini beradi. Firmaning asosiy maqsadi va vazifalari barcha xodimlarning tushunchasiga to'liq yetkaziladi. Ular bu maqsad va vazifalarni to'liq tushungan holda shaxsiy maqsad va vazifalar deb qabul qilinadi.

Yaponiya ishlab chiqarish tizimi dunyodagi boshqa davlatlarda yo'q lekin, yaponcha ishlaymiz degan harakat hatto AQSh da ham bor. Biz ham yapon menejerlarini tajribalarini yaxshi o'rganib o'zlashtirishimiz kerak.

Yaponiyada turli xil ixtiyoriy belgilar amal qiladi. Bu belgilarni assotsatsiyalarni va boshqa jamiyatlar tovarlarning ma'lum bir taraflariga javob berish to'g'risidagi iste'molchilarni ta'minlaydi. Bu belgilar oziq-ovqat tovarlar uchun alohida

xususiyatga ega. Shunday qilib, shuni ta'kidlash kerakki Yaponiya bozoriga kirish uchun eksporterlar Yaponiyada amal qiluvchi standartlar va qoida talablaridan sinov natijalariga bo'lgan talablardan xabardor bo'lishga. Buning uchun Yaponiyadagi hamkorni to'g'ri tanlash lozim. Agarda hamkorni to'g'ri tanlamasa, tovarni bozorga siljitish mumkin emas. Xorijiy tovar yetkazib beruvchilar Yapon bozoriga turli xil yo'llar bilan kirmoqchi bo'lishadi. Yoki ichki bozorni himoya qiluvchi qattiq to'siqlarni sertifikatlashtirishni tadbirlarni ko'rishadi.

Xulosa.

Mamlakat iqtisodiyotining bozor munosabatlariga o'tishi jahon iqtisodiy jarayonlarida qo'llanadigan ishlab chiqarish xo'jalik va tijorat usullari alohida o'rin egallaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat muhitini mavjudligi sifat va uni boshqarish muammolariga katta ahamiyat berishga majbur qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 'Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir ' nomli asarlarida 2007-yilda amalga oshirilgan eng ustuvor yo'nalishlar haqida to'xtalib o'tar ekanlar 'Birinch navbatda ijtimoiy-iqtisodiy yutuqlarimiz negizida yalpi ichki mahsulotning yuqori sur'atlar bilan o'sishi an'anaviy xom-ashyo tarmoqlarni hisobidan emas, jahon bozoridagi qulay konyenkтура va ayrim xom-ashyo turlari hamda materiallar narxining yuqoriligi hisobidan emas, balki birinchi navbatda raqobatga bardoshligi sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hamda zamonaviy xizmat ko'rsatish sohalarini jadal rivojlantirishni belgilab beradigan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar va ishlab chiqarish samaradorligini belgilab oshirish evaziga ta'minlanmoqda' - ,degan edilar.

Menejerlar borgan sari sifatning ahamiyatini tan olmoqdalar. Lekin ularning kuchliligi uni kompaniya nuqtai nazaridan o'lchaydi va aniqlaydi. Ob'ektiv va qabul qilinayotgan sifatlar o'rtasidagi bo'linishning kamayishi kompaniya sifatga iste'mol nazari bilan qarashini talab qiladi. Shuningdek kompaniyalar uchun turli tovar kategoriyalariga tegishli tovarlar xaridorlarini ko'proq qiziqtiruvchi sifatning abstrakt o'lchamlarini aniqlovchi tadqiqotlar o'tkazish foydalidir.

Korxonalar bozor talablarini o'rgangan holda iste'molchilar ehtiyojlarini qondirib foydalanishda zaruriy samarani ta'minlaydigan mahsulotlar chiqarishlari kerak. Iste'molchilar yaxshi sifatli chiroyli mahsulot olishga harakat qiladi. Shu sababli sifatni korxonalar sifat darajasi oshib borganda mahsulot ishlab chiqarish uchunqilinayotgan harajatlar boshida sekin oshadi. Chunki ishlab chiqarish berilgan talablarni osonlik bilan bajaradi. Keyinchalik sifat darajasi o'sishi bilan harajatlar oshib ketadi. Oxiri shunday chegaraga yetib boradilarki harajatlar cheksizlikka intiladi.

Har bir korxonaning asosiy vazifasini tashkil etish ishlab chiqarilgan mahsulot sifati hisoblanadi. Korxonaning muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi, ko'rsatayotgan xizmat yoki ishlab chiqarish mahsuloti bilan asoslanadi. Ular :

1. Aniq belgilangan ehtiyojlarni javob beradi. Foydalanish yoki mo'ljallangan bosqichlar ;
2. Iste'molchilar talabini qondirish;
3. Foydalanilayotgan standart va texnik shartlarga mos kelish;
4. Harakatdagi qonunlar va boshqa talablarga mos kelishi;
5. Iste'molchiga raqobatbardosh bahoda taklif etish;
6. Foyda olishga qaratilishi va boshqalar.

Haqiqiy sifatli mahsulot turli to'siq va ko'ngilsizlikka uchramaydi.

Takliflar.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish juda ham dolzarb masala va korxonalar imidji, iqtisodiy faoliyati uchun kerakli jarayon hisoblanadi.

Ishlab chiqarish korxonalarida sifatni boshqarish tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi takliflarni bermoqchiman.

Avvalo sifatli mahsulot ishlab chiqarish uchun sifatli xom-ashyo kerak. Shuning ta'minotchilar bilan shartnoma ishini sifatli xom-ashyolarni adashmay, tanlay bila oladigan malakali mutaxassisga topshirish kerak.

Sifatli tovar ishlab chiqarish uchun ishchi-xodimlarning o'zlari ham tajribali bo'lishlari kerak va o'z ustida muntazam ishlashlari, malakalarini mutassil oshirib borishlari kerak.

Sifatli tovar ishlab chiqarish uchun faqatgina xom-ashyo, tajribali ishchilarning o'zi yetarli emas, balki ishlab chiqarish vositalari ham sifatli bo'lishi kerak, ya'ni zamon talablariga javob beradigan, davlat standartlari asosida ishlaydigan bo'lishi kerak.

Shuning uchun ishlab chiqarish korxonalarini fan-texnika yangiliklaridan foydalanib, ishlab chiqarish vositalarini iloji boricha takomillashtirib turishlari kerak. Ana shunda mahsulot ishlab chiqariladi.

Taklif darajasining talab darajasidan ortib ketishi, xaridorlar uchun raqobat kurashining olib borilishi korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotni baholay olish imkonini beruvchi ob'ektiv ko'rsatkichlarni ishlab chiqishni zaruriyati kelib chiqadi. Bunda shartnomada amal qiladigan barcha muddatlar davomida tayyorlanayotgan va yetkazib berilayotgan mahsulotlarning sifat darajasi barqaror, muqarrar bo'lishi kerak. Ishlab chiqarish korxonada xalqaro standartlarga muvofiq keluvchi sifat tizimining mavjud bo'lishi barqarorlik kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Sifat tizimida sertifikatning mavjud bo'lishi bozorda raqobatni saqlashning zaruriy sharti bo'ib hisoblanadi, u o'zida:

1. Ishlab chiqarishni boshqarish bilan bog'liq muammolarning mavjud emasligi;
2. Korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotlarga buyurtmachilar tomonidan bildirilayotgan shikoyatlar sonining ko'p emasligi;

3. Xaridorlar mol yetkazib beruvchining sifatni boshqarish tizimidan qoniqish hosil qilish;
4. Xaridorlar mavjud sifatni boshqarish tizimi to'g'risidagi hujjatlarni talab qilishi;
5. Xaridor mol yetkazib beruvchida sifatni boshqarish tizimining mavjudligi shaxsan o'zi tekshirishi va baholay olishini;
6. Xaridor korxonada sifatni boshqarish tizimini sertifikatlagan organ sertifikatini so'rash orqali buyurtmachi mol yetkazib beruvchining sifatli boshqarish tizimining baholashda yuqoridagi variantlaridan foydalanishi mumkin.

Avvalo axborot tizimini qayta qurish va hozirgi zamon tashkiliy va hisoblash texnikasidan keng foydalanish yo'li bilan ta'minlash zarur. Boshqaruv ishlarini mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, ish joylarini tashkil etish va ularga xizmat ko'rsatish, ish vaqtidan tejamli foydalanish katta ahamiyat kasb etad.

